

---

## **JANUBIY OSIYO MAMLAKATLARI SIYOSIY HAYOTIDA AYOL LIDERLAR: TARIXIY TAJRIBA VA SABOQLAR**

**t.f.d., prof. S.B. Shadmanova**

TDSHU kafedra mudiri

**I.F. Xayrullayeva**

TDSHU magistr talabasi

[fahriddinovnairoda96@mail.com](mailto:fahriddinovnairoda96@mail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqola XX asr ikkinchi yarmida Janubiy Osiyo mamlakatlari hukumati tepasidagi ayol rahbarlar faoliyatiga bag`ishlanadi. Bundan tashqari maqolada ayol rahbarlarning qay tariqa hokimiyatga kelganliklari, ularning g`arb mamlakatlardagi ayol rahbarlaridan farqli jihatlari hamda uning natijalari yoritilgan.*

**Kalit so`zlar:** *Janubiy Osiyo, "millat otasi", Indira Gandi, Benazir Bxutto, Xolida Ziyu va Xasina Vazed, Sirimavo Bandaranaike.*

### **ABSTRACT**

*This article focuses on the activities of women leaders in government in South Asia in the second half of the twentieth century. In addition, the article discusses how women leaders came to power, how they differ from women leaders in Western countries, and its consequences.*

**Keywords:** *South Asia, "father of the nation", Indira Gandhi, Benazir Bhutto, Khalida Ziyu and Hasina Vazed, Sirimavo Bandaranaike.*

### **АННОТАЦИЯ**

*Эта статья посвящена деятельности женщин-лидеров в правительстве Южной Азии во второй половине двадцатого века. Кроме того, в статье рассказывается, как женщины-лидеры пришли к власти, чем они отличаются от женщин-лидеров в западных странах и каковы последствия этого.*

**Ключевые слова:** *Южная Азия, «отец нации», Индира Ганди, Беназир Бхутто, Халида Зиё и Хасина Вазед, Сиримаво Бандаранаике.*

### **KIRISH**

Sharqda ayollarning hokimiyat boshqaruviga chiqishi va davlat siyosiy hayotida ishtirok etishi kam uchraydigan holatlardan biri hisoblanadi. Biroq, XX asrning ikkinchi yarmida Sharqning katta bir bo`lagi bo`lmish Janubiy Osiyo mintaqasida bu holatni bir necha marotaba kuzatilganligiga tarix guvohdir.

Janubiy Osiyoda hukumat tepasiga kelgan ayollari orasida g'arbdagi Golda Meir kabi duradgorning qizi, yoki baqqol oilasida voyaga yetgan Margaret Tetcher singari oddiy aholining farzandlari yo`q edi. Ularning bari mustaqillikka erishish davrida kurash olib borgan, "millat otasi" hisoblanmish hukumat rahbarlarining qizlari yoxud ularning beva ayollari edi. Bu ayollar kutilmaganda hukumat boshqaruvini qo`lga kiritdilar, o`zlarining aql-idrokklariga tayangan holda o`tmishdoshlari yuritgan siyosatni umumlashtirib faoliyat olib bordilar. Ularning siyosiy hayotdagi muvaffaqiyatining omili ko`p jihatdan egallab turgan mansablari, siyosiy yo`nalishlari, shuningdek, aholi o`rtasida shuhrat qozongan jozibador oilaviy nomlari edi. Bu ayollar Janubiy Osiyo hukumati boshqaruviga kelgan birinchi siyosiy vakillar hisoblanadi.

### **ADABIYOTLAR VA METODLAR**

Ayol-rahbarlarning nufuzi nafaqat ular olib borgan ishbilarmonlik va kasbiy nufuzlari bilan, shuningdek siyosatdagi shaxsiy ulushlari yoki islohatlardagi omadli xatti-harakatlari bilan ham o`lchanadi. Oddiy aholi ko`z o`ngida ularning aksariyat qismi "tanlab olinganlar" degan samoviy nom ostida gavdalana boshladilar. Nima bo`lganda ham ayollarning siyosatga aralashuviga zamin yaratgan voqea bu ularning siyosatda faoliyat yuritgan otalari yoki turmush o`rtoqlarining xizmati bilan qiyoslanadi. Agar ayollar hukumat tepasiga kelishida ularning nikohi yoki oilaviy nufuzi turtki bo`lgan bo`lsa, ekspertlar bunday ayollarning yuksalishiga "davomiy bo`lmagan va natijasiz siyosat" yoki qo`shimcha tarzda ularning g`oyatda omadli "osiyocha nepotism" deb baho beradilar.<sup>1</sup>

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Zamonaviy tadqiqotchilar birinchi hukumat yetakchilar sifatida Indira Gandi (1917-1984), Benazir Bxutto (1953-2007), Xolida Ziyo (1945-yil tug`ilgan) va Xasina Vazed (1947-yi tug`ilgan), Sirimavo Bandaranaike (1916-2000) larni talqin qiladilar.

Britaniya dominoni hisoblangan Seylon tarixida birinchi bor bosh vazir lavozimini Sirimova Bandaranaike egallaydi. Sirimova Bandaranaikening g`alabasi hammani hayratga soldi, xattoki g`arb jurnalistlari dastlabki davrlarda uni qanday nomlashni ham bilmay qolgandilar. Sirimova Bandaranaikening Seylondagi (o`sha davrdagi Shri-Lankaning nomlanishi) bosh vazirlikka saylovlar bo`lib o`tgan sananing ertasi kuniyoq Evening News London gazetasida "Uni qanday nomlaymiz?"

<sup>1</sup>Richter L.K. Exploring Theories of Leadership in South and Southeast Asia // Pacific Affairs. 1990-1991. Winter. Vol. 63. №4. P.524-540.

Hukmdor? Yoki qirolicha? Yangicha nom o`ylab topish kerak!”, - kabi maqolalar bosib chiqarilgan edi.<sup>2</sup>

1959-yilda mamlakatda Solomon Bandaranaike bosh vazirligi davrida hokimiyatda vakuum holati yuzaga kelib qolgan edi. 1959-yilgacha Sirimova mamlakat siyosatiga mutlaqo aralashmagan. Turmush o`rtog`i vafotidan so`ngina(1959-yil), o`z nomzodini ko`rsatishga rozi bo`ladi. Biroq ba`zi sabablarga ko`ra, saylov amalga oshmay, parlament tarqalib ketadi. Keyingi saylov 1960-yil mart oyida bo`lib o`tadi, Ozod Shri – Lanka partiyasi rahbari sifatida Sirimova nomzodini ko`rsatadi va g`alaba qozonib, mamlakatning birinchi ayol bosh vaziri etib saylanadi.

Toshkentda Hindiston bosh vaziri Lal Baxadur Shastrining yurak xuruji sababli vafot etganidan (1966) so`ng, hokimiyatga Indira Gandhi kelishi mamlakat politologlari uchun bir yangilik edi. Shastrining o`limidan keyin, Indira tezlik bilan Hindiston Milliy Kongressining boshlig`i etib saylandi va vazirlikdagi bo`sh o`rinlarni birin-ketin egallay boshladi. Shunday qilib, uzoq siyosiy faoliyatdagi muvaffaqiyatlar Gandining mehnatlari evaziga kelgan bo`lib, u haqida usha davrdagi bir tadqiqotchi shunday yozgan edi: ”Shastrining bu dunyodan ko`z yumishidan boshqa barcha mamlakatda yuz bergan siyosiy voqealarning xech biri tasodif emas edi”.<sup>3</sup>

Bu kabi kutilmagan olamshumul voqealar Benazir Bxutto faoliyatida ham keskin burilish yuz berishiga sabab bo`ldi. 1988-yil 17-avgust kuni Pokiston prezidenti, diktator Ziyu ul-Xaq hukmronligi davrida Benazirning otasi jazolanadi va avtohalokatda vafot etadi. Bu xabardan so`ng birinchilardan bo`lib pokistonliklar diktator hukmronligini rad etadilar va aholi o`rtasida uni mamlakatdan yashirin tarzda qochib ketdi degan gap tarqaladi, bu esa o`z navbatida ko`p yillik diktatorlik hukmronligining yakunini anglatar edi. 1988-yil favqulotda o`tkazilgan saylovlarda Bxutto boshchilik qilgan Pokiston Xalq Partiyasi g`alaba qozondi va bosh vazir lavozimini Benazir Bxutto egalladi.

Xech kim Prezident Ziaur Raxmon o`ldirilgandan so`ng, Bangladesh bosh vazirlik lavozimini uning rafiqasi, oliy mutaxassislikka ega bo`lmagan, siyosatdan ancha yiroq oddiy uy bekasi Xolida Ziyu egallaydi deb tasavvur qilishmagandi.

1981-yil hukumat almashinuvi davrida Ziaur Raxmon bir guruh askarlar tomonidan o`ldirildi, shundan so`ng Xolida Ziyu siyosatga faol aralasha boshladi, 1984-yildan M.B.P.ni boshqara boshlaydi. Shayx Hasina Vazed va uning partiyasi

<sup>2</sup>”The world`s first female prime minister”. Witness History.<https://www.bbc.com/news/av/article.2014>

<sup>3</sup>Bennett N. Actors or puppets? The Female Prime of South Asia // [http:// www.nataliebennett.co.uk](http://www.nataliebennett.co.uk).

“Avam Liga”, shu bilan bir qatorda Ziaur Raxmonning o`ldirilishining asosiy sababchisi hisoblangan Ershadga ko`pchilik hukumat a`zolari qarshilik ko`rsata boshlashadi. Xolida ularning hokimyatini xalqaro sanktsiyaga qo`yishga muvaffaq bo`ladi va oxir-oqibat 1990-yil dekabrda Ershadning iste`fo berishga majbur qiladi, Ziyoda esa Bangladeshning birinchi ayol bosh vazir lavozimini egallaydi. Aynan o`sha yili Bangladesh Konstitutsiyasiga qaytadan Bangladesh parlament respublikasi deb tuzatish kiritiladi (mamlakatning birinchi konstitutsiyasida ham bu qonun mavjud bo`lib, 1975-yilda Sheyx Mudjipur Raxmon tashabbusi bilan prezident boshqaruvidagi davlatga o`zgartirilgan edi).

Xolida hukumat tepasiga kelganida poraxo`rlik va jinoyat o`z cho`qqisiga erishgan edi. Bangladesh aholisi ko`payib borayotgan bir kambag`al mamlakat edi. Saylovlar davrida Xolida umumiy tenglikka erishish, korrupsiyaga qarshi kurashish kabi bir qancha kelajakda hukumatdagi o`zgarishlarni e`lon qildi. Milliy Bangladesh partiyasi Ganga daryosi hududlari bo`linishi masalasi oqibatida tashqi siyosatda Hindiston bilan keskinlashish, Pokiston bilan esa yaqinlashish choralarini ko`ra boshlaydi. Xolida Ziyoda hukmronligi davrida ta`limga ajratilgan davlat budjeti oshiriladi va qiz bolalar uchun bepul 10 sinfdan iborat maktablar tashkil qilinadi. Davlat iqtisodiyoti qisman liberralashtiriladi, xorijiy kapital kirib kelishi rag`batlantiriladi hamda xususiylashtirishga katta e`tibor qaratiladi. Shuningdek, Ershad diktatorligi davrida zavol ko`rgan mamlakatning ahvolini demokratik holatga keltirishga harakat qiladi. Keyinchalik mutaxassislar bu ayollarning qonuniy yo`l bilan hokimyat jilovini qo`lga kiritganligiga qaramasdan, hokimyat egallanishining asosiy sababi deb ularning aslzoda oiladan ekanliklarini ta`kidlab keldilar.

Ayol rahbarlarning har biri o`z mansablarini na vasiyat va na an`anaviy tarzda qo`lga kiritdilar, balki ular hokimyatga kelgunlariga qadar ko`plab qiyinchiliklarni boshdan kechirdilar. Benazir Bxutto, Xasina Vazed va Xolida Ziyolar bu kurash davomida juda o`g`ir va alamli judoliklarni guvohi bo`ldilar, ularning har biri o`z hayotlarida ko`plab suiqasdlar, surgun holatlarini sabr bilan yengib o`tdilar. Chandrika Kumaratunga tamillik harbiy-qotil tomonidan uyushtirilgan suiqasddan arang qutulib qoldi, biroq natijada ko`z nurlaridan ayrildi, Indira Gandhi va Benazir Bxuttolar esa siyosiy qotillikning qurbonlari bo`lishdi. Vorislik huquqi biz ko`rganimizdek, sobiq hukmron patriarxat qarindoshlarga yaqinlik oqibatida yuz bergan edi. Bunday “qonuniy” vorislik g`alabasi qo`lga kiritilishi ommaviy zulm ustidan yaxshilikning g`alaba qozonishi edi. O`lim siyosati – bu shaxsiy adovat emas, balki siyosatning muhim bir faoliyatining bir turi hisoblanadi. Indira Gandhi: “Azobli o`lim – bu hammasi tamom degani emas, balki bu boshlanishi, xolos.”, - deb

aytganida, u motloq haq edi.<sup>4</sup> Bu ayollarning vafoti (shuningdek, oila aʼzolarining ham oʻldirilishi), mustaqillik yoʻlida xalq uchun, vatan uchun oʻz hayotini qurbon qilgan yaqinlari kabi aholi orasida jasorat timsoli yohud milliy ozodlik qahramonlari sifatida nom qoldirdilar. Ular orasida faqat Indira Gandining otasi (Javoharlal Niru) va turmush oʻrtogʻi (Feruz Gandi)gina oʻz ajallari bilan vafot etishgan. Shunday boʻlsa ham bu kurash davomida Indira Gandi ikki oʻgʻlidan ayrildi, ulardan biri Sanjay 1980-yilda ikkinchi marta vazirlikda faoliyat yuritib kelayotgan vaqtida avtohalokatda vafot etdi, Radjiv Gandi esa 1991-yilda qotillik natijasida hayotdan koʻz yumdi. Yuqorida aytib oʻtilganidek, 1959-yilda turmush oʻrtogʻidan ayrilgan Sirimova uch farzandi bilan qoladi. Uning siyosiy vorisi hisoblanmish qizi – Chandrika yoshligida otasidan ayrilgani yetmaganidek, 1988-yil turmush oʻrtogʻi singallik qoʻporuvchi tomonidan oʻldirildi, Chandrika esa ikki bolasi bilan yolgʻiz qoladi.

Bangladeshning birinchi prezidenti, “Mamlakat asoschisi” Shayx Mudjibur Raxmon(1920-1975)ning qizi Sheyx Xasina Vazedning hayoti esa Shekspir yaratgan tragedik asarlaridanda daxshatliroq edi. Davlat toʻntarilishi davrida, bir guruh norozi kayfiyatdagi Bangladesh armiyasi ofitserlari tomonidan 1975-yil 25-avgustda Xasinaning barcha oila aʼzolari – otasi, onasi, akasi, kelini, jiyanlari, jami hisoblaganda 20 nafar qarindoshlari oʻldiriladi. Bu suiqastdan Xasinaning oʻzi omon qoladi va davlat toʻntarilishi davrida opasi Rexana bilan GFRga joʻnab ketib, usha yerda jon saqlaydi.

1981-yilda Bangladeshdagi yana bir toʻntarilish davrida Xolida Ziyoning turmush oʻrtogʻi Ziaur Raxmon (1931-1981) vafot etadi, Xolida esa ikki voyaga yetmagan farzandlari bilan qolib ketadi. Bu fitna bir vaqtlar Xolida Sheyx Mudjipur Raxmonga nisbatan uyushtirilgan suiqastda aloqadorligi tufayli (Ziaur Raxmonning qotili diktator Ershad deb tahmin qilinadi) unga nisbatan uyushtirilgan siyosiy javob edi. Shundan soʻng uzoq vaqt davomida Xolida va Xasina oʻrtasida adovatli kurashlar davom etadi.

1977-yilda yuz bergan Pokistondagi toʻntarilish oqibatida hokimiyat tepasiga diktator general Ziyu ul-Xaq keladi (1979-yilgacha mamlakatni boshqaradi) va mamlakatda obruga ega hamda yirik kompaniya rahbari Zulfiqor Ali Bxuttoni siyosatdan chetlashtiradi. Bxuttoning qizi Benazir otasini qutqarish uchun Pokiston Xalq Partiyasiga boshchilik qilib, siyosat yoʻlidan ketadi.

---

<sup>4</sup>Selected Speeches of Indira Gandhi: January 1, 1982–October 30, 1984. Publication division, Ministry of Information and Broadcasting, Government of India, 1986.



1991-yil qo`poruvchilik davrida bosh vazir Radjiv Gandi vafot etgani barchaga ma`lum. Turmush o`rtog`i vafotidan so`ng, Soniya Gandi partiya boshqaruvini o`z qo`liga oladi va 2004-yildagi saylovlarda g`alaba qozonadi. Biroq siyosiy muxolifat kuchlar unga qarshi “millat birligini saqlab qolish” vajini rukach qilib, uni hokimyatdan ketishga majbur qiladilar (Soniya Gandi italiyalik edi).<sup>5</sup>

### **XULOSA**

Xulosa o`rnida aytish mumkinki, ayol-rahbarlarning hokimyat tepasiga kelishining asosiy sababi, ular siyosat arboblarning qizi yoki beva ayollari bo`lgani ekanligida deb aytadigan bo`lsak, keyinchalik bu siyosat erkak rahbarlarning ham siyosatga kelishida muhim ahamiyat kasb etdi. Misol tariqasida Radjiv Gandining hokimyat tepasiga kelishini keltirsak bo`ladi. 1984-yil onasi Indira Gandining vafotidan so`ng, Radjiv Gandi bosh vazir lavozimini egallaydi ( siyosiy-tarix manbalardan bizga ma`lumki, Radjiv Gandi mamlakat siyosatiga unchalik ro`yxush bermagan va o`z ehtiyooriga qarshi ravishda mamlakat bosh vaziri lavozimini egallagan edi). 1955-yilda Benazir Bxutto fojiali tarzda xalokatga uchradi, uning turmush o`rtog`i Asif Ali Zardari esa ungacha siyosatda ayoli kabi obruga ega bo`lmagan, poraxo`rlikda ayblanayotgan edi. 2008-yilda uning to`satdan mamlakat prezidenti lavozimini egallashi esa yuqorida aytib o`tilgan so`zlarimizning nechog`lik to`g`ri ekanligining yorqin isbotidir. Janubiy Osiyoda ma`lum davrda hokimiyat boshqaruvida ayollarning erkaklarga nisbatan ko`p siyosiy faoliyat olib borishi, tadqiqotchilar aytganidek, tasodif yoki vorislik bo`lishi mumkin, biroq uning davomiyligida faqatgina o`zlariningoqilona siyosat olib borishlari, yuksak aql-zakovatlari, tinimsiz mehnat hamda millat va xalqqa nisbatan chuqur muhabbat hissining kuchliligida edi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI (REFERENCES)**

1. Bennett N. Actors or puppets? The Female Prime of South Asia // <http://www.nataliebennett.co.uk>.
2. Richter L.K. Exploring Theories of Leadership in South and Southeast Asia // Pacific Affairs. 1990-1991. Winter. Vol. 63. №4. P.524-540.
3. Selected Speeches of Indira Gandhi: January 1, 1982-October 30, 1984. Publication division, Ministry of Information and Broadcasting, Government of India, 1986.
4. Суворова А.А. Женщина-лидер в Южной Азии: случайность или закономерность? // Восток. 2016. № 5.
5. Юрлова Е.С. Женщины Индии: традиции и современность. – М., 2014. С.390-440.

<sup>5</sup> Юрлова Е.С. Женщины Индии: традиции и современность. – М., 2014. - С.421-440.